

“UzGasTrade” AJ
Yagona aksidorning
2022 yil “30” sentabr dagi
5-sonli qaroriga

3-ILOVA

“TASDIQLANGAN”

“UzGasTrade” AJ
Yagona aksiyadorining
2022 yil “30” sentabr dagi

5 -son qarori bilan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent - 2022 yil

MUNDARIJA:

1. UMUMIY QOIDALAR.....	3
2. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHNING VAKOLATLARI.....	3
3. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHINING QAROR QABUL QILISH TARTIBI.....	5
4. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHIDA QABUL QILGAN QARORLAR IJROSI.....	5
5. YAKUNIY QOIDALAR.....	6

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur tartib “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining (Yagona aksiyador) huquqiy maqomini, uning faoliyat tartibini, huquq majburiyatlarini va qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilaydi.

2. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, (bundan buyon mantda - Qonun) “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 176-sonli qarori hamda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha Komissiya yig‘ilishining 2015 yil 31 dekabrdagi 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga va “UzGasTrade” AJning (bundan buyon - Jamiyat) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Tabiiy gaz bozorini isloh qilishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-280-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

4. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilish yilda bir marta yillik qaror qabul qiladi.

5. Jamiyat aksiyadorlarining yillik Umumi yig‘ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Qoida tariqasida, aksiyadorlarning yillik umumi yig‘ilishi har yili iyun oyining ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. Yillik qarorda amaldagi qonunchilik va Jamiyat Ustavida belgilangan masalalar bo‘yicha qabul qilinadi.

6. Aksiyadorlarning yillik umumi yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumi yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.

7. Aksiyadorlarning yillik umumi yig‘ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnoma muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi masalalar hal qilinadi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti, Ijroiya organi va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasi va biznes rejasi ijrosi yuzasidan ko‘rilayotgan chortadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlar hamda boshqa hujjatlar ko‘rib chiqiladi.

II. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHNING VAKOLATLARI

8. Aksiyadorlarning yillik umumi yig‘ilishining vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyat ustaviga o‘zgartish va qo‘sishmchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, Jamiyat ustaviga Jamiyatning ustav fondini ko‘paytirish hamda Jamiyatning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirishlar va qo‘sishmchalar kiritish bundan mustasno;

2) Jamiyatni qayta tashkil etish;

3) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- 4) Jamiyat Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - 5) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
 - 6) Jamiyatning ustav fondini kamaytirish va ko'paytirish;
 - 7) o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;
 - 8) Jamiyatning ijroiya organini tuzish. Bunda Jamiyat boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), qoida tariqasida, chet yellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamiyat ijroiya organining faoliyati tartibini belgilab beruvchi Nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish (saylash, tayinlash, yollash va boshqalar), ularga beriladigan mukofot va kompensatsiya miqdorini belgilash;
- 9) Auditorlik tekshiruvini o'tkazish haqida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotini tayinlash va uning xizmati uchun to'lanadigan pul miqdorinining yuqori chegarasini belgilash;
 - 10) Jamiyatning yillik biznes rejasini, yillik hisobotini, buxgalterlik balansini, foyda va zararlar xisobini tasdiqlash;
 - 11) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
 - 12) Jamiyat kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini xulosalarini eshitish;
 - 13) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - 14) Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi qabul qilish reglamentini tasdiqlash;
 - 15) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
 - 16) Ikki yoki undan ortiq Kuzatuv kengashining a'zosi affillangan shaxs bo'lgan taqdirda affillangan shaxs bilan bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - 17) Qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sofi aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulkni sotib olish yoki sotish xususida yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - 18) Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - 19) Jamiyat boshqaruv organlari faoliyati tartibini belgilovchi xujjalarni tasdiqlash;
 - 20) aksiyadorlik jamiyatining 5 yildan ortiq davrga mo'ljallangan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;
 - 21) aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv asoslarini tartiblovchi ichki nizomlarni tasdiqlash;

22) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

III. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHINING QAROR QABUL QILISH TARTIBI

9. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan yillik qaror qabul qilinadigan masalalarni dastlab Kuzatuv kengashi ko‘rib chiqishni amalga oshiradi.

10. Dastlabki ko‘rib chiqish natijasi asosida, Ustavda ko‘zda tutilgan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan yillik qaror qabul qilinishi sanasidan 30 kalendor kunidan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan (yoki uning topshirig‘iga ko‘ra Jamiyat ijro organi tomonidan) Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga tegishli masalalar yuzasidan qaror qabul qilish bo‘yicha yozma, ko‘rilayotgan va qaror qabul qilinayotgan masalalar ro‘yxatini shuningdek kerakli materiallar ilovasi bilan va kiritilayotgan masalalar bo‘yicha Aksiyadorlar umumiy yig‘ilish qarori loyixasini o‘z ichiga olgan takliflar yuboriladi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi talabiga ko‘ra qaror qabul qilish uchun kerakli bo‘lgan boshqa materiallar ham taqdim etilishi mumkin.

11. Kuzatuv kengashi yillik qaror qabul qilish uchun kiritgan masalalar bilan birga Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan o‘z tashabbusiga ko‘ra boshqa qarorlar xam qabul qilinishi mumkin.

12. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga tegishli masalalar yuzasidan navbatdan tashqari qarorlar qabul qilinishi mumkin:

- o‘z tashabbusiga ko‘ra;
- Kuzatuv kengashining taklifiga ko‘ra;
- Jamiyat ijro organining taklifiga ko‘ra.

Ushbu holatda qaror qabul qilinishining tashabbuskori tomonidan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga Jamiyat ustavi va ushbu nimda belgilangan materiallar yuboriladi. Ko‘rilayotgan masala yuzasidan kerakli materiallar to‘plami olingan fursatdan boshlab 5 ish kuni ichida Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan navbatdan tashqari qaror qabul qilinishi yoki asoslantirilgan holda qaytarilishi lozim.

13. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qabul qilayotgan qaror yozma ravishda ikki nusxada qonunda belgilangan muddatda rasmiylashtiriladi va ijro organiga saqlash uchun beriladi.

IV. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHIDA QABUL QILGAN QARORLAR IJROSI

9. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qabul qilgan qarorlarning nazoratini Kuzatuv kengashi amalga oshiradi, agar qarorda boshqasi ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

10. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori Jamiyatning barcha boshqaruvi organlari uchun ularga taaluqli qismlar bo‘yicha bajarish uchun majburiyidir.

V. YAKUNIY QOIDALAR

16. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

17. Mazkur Nizomga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar Jamiatning Kuzatuv kengashi va Jamiatning ijroiya organi rahbari takliflari bo‘yicha kiritiladi.

18. Agar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va normativ huquqiy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishi natijasida mazkur Nizomning ayrim moddalari ularga zid kelsa, ushbu moddalar o‘z kuchini yo‘qotadi va Jamiat tomonidan Nizomga taalluqli o‘zgartishlar kiritiladigan paytga qadar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy (normativ) hujjatlariga amal qilinadi. Bunda mazkur Nizom istalgan qismlaridan birining haqiqiy emas deb topilishi umuman butun Nizomning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.